

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**TABIIY FANLAR:
DOLZARB MUAMMOLAR VA
ULARNING YECHIMLARI**

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

I-qism

7-8-May 2025-yil



SAMARQAND – 2025



YER RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING IQTISODIY - EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Namozov Jo‘rabek Abduazizovich, Dushamova Shahnoza Ikrombek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universitsiteti

***Annotatsiya:** Maqolada tabiiy resurslar, xususan yer resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy, ekologik hamda iqtisodiy - ekologik jihatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Yer resurslaridan foydalanishga doir an‘anaviy hamda zamonaviy qarashlar, ularning o‘ziga xos jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Yer resurslarining bir - biriga bog‘liq va o‘ziga xos tomonlari, yutuq va kamchiliklari ko‘rsatilib, bu borada ba‘zi bir tavsiya va takliflar berilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** Tabiiy resurs, yer, iqtisodiy, ekologik, oqilona foydalanish, samaradorlik, ratsional, barqaror rivojlanish.*

Yer resurslari – ma‘lum bir davlat, mintaqa, viloyat, tuman yoki hududdagi tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan, aniq bir xo‘jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan yerlardir [1]. Ushbu ta‘rifda nisbatan kengroq, umumiy xo‘jalik doirasida fikr bildirilgan. Ya‘ni bu yerda iqtisodiyotning har bir tarmog‘i uchun xos bo‘lgan yer resurslari mavjudligi nazarda tutilgan.

Yana bir ta‘rifda “Yer resursi bu – yer fondining tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘ziga xos tuproq sifati, iqlim, relyef, gidrogeologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi, jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida undan asosan zarur mahsulotlar yetishtirishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi” [3] – deyiladi, bunda asosan yerdan qishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanish nuqtai-nazaridan kelib chiqib ta‘rif berilgan.

Yer qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi vositasi sifatida ma‘lum bir tarixiy davrda namoyon bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan mehnat qurollari takomillashib, ishlab chiqarish jarayonlari kengayib, yerning inson hayotidagi o‘rni yanada ortib boradi. Biroq yer dehqonchilikda mehnat vositasi bo‘lishi uchun mehnatning boshqa vositalari ham mavjud bo‘lishi shart, hamda ishlab chiqarish kuchlari ma‘lum darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Shunda yer qishloq xo‘jaligida faol ishlab chiqarish vositasiga aylanadi. U mehnat jarayonining zaruriy moddiy shart-sharoiti, ishlab chiqarishning eng muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Yer qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarilmaydigan, alohida, original, almashtirib bo‘lmaydigan ishlab chiqarish vositasidir [6].

Yer insoniyat tarixining barcha bosqichlarida iqtisodiy farovonlik asosi, insonlar hayotining zaruriy, moddiy sharoiti sifatida namoyon bo‘lib keldi. Mulkehlikning yangi shakllari paydo bo‘lishi, ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashib borishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlari yerning tabiiy xususiyatlari va hududiy turlichaligiga bog‘liqdir. Bu esa yerning asosiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish vositasi sifatida barcha ishlab chiqarish hamda texnologik xususiyatlarini to‘la va aniq o‘rganishni, hamda unga amal qilishni talab qiladi. Hatto V.V.Dokuchaev ham ta‘kidlaganki: «...tuproq iqlim bilan birgalikda mazkur hududning barcha qishloq xo‘jalik va iqtisodiy hayotining asosidir»[6].

Yer resurslari cheklangani ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Qolaversa, mazkur jarayon faqatgina biror mamlakat yoki mintaqaga tegishli bo‘lib qolmay, hozirgi vaqtda global



ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning ko‘plab yirik tashkilotlari va ilmiy markazlar bevosita ushbu masala bilan shug‘ullanishadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1992 yil “Atrof-muhit va taraqqiyot” mavzusidagi konferensiyada “Barqaror rivojlanish qonsepsiyasi” qabul qilindi (Rio-de-Janeyro, Braziliya) va 2002 yilda Yoxannesburg (JAR)dagi konferensiyada ham davom ettirildi. Unda yer resurslari ham jamiyat, ham tabiat rivojlanishida asosiy omil sifatida e’tirof etildi. Mazkur konsepsiyada tabiat va jamiyat rivojlanishining uch xil, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari targ‘ib etildi [10].

Iqtisodiy barqaror rivojlanish – yer resurslaridan oqilona foydalanish va shu orqali har qanday mintaqa, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdan iborat. Resurslarning cheklanganligini hisobga olgan holda, ushbu jarayonni mintaqalar bo‘yicha prognoz qilish, bundan tashqari tabiiy resurslarning tiklana olish qobiliyati, imkoniyati, sharoitini har doim o‘rganib, baholab borish ham barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy barqaror rivojlanish – yer yuzida yashaydigan barcha xalqlarning moddiy va ma’naviy hayotini birgalikda, bir xilda rivojlantirish, eng avvalo kishilarning sifatli oziq-ovqat va chuchuk suv resurslari bilan yetarli ta’minlash inobatga olinadi.

Ekologik barqaror rivojlanish – jamiyatning tabiiy resurslarga, tabiat komplekslarining miqdoriy va sifatli darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmasdan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidir. Konsepsiyaning asosiy mazmuni ham shundan iborat bo‘lib, jamiyat rivojlanishi, davlatlarning taraqqiy etishi, tabiat komponentlariga kuchli ta’sir etmasdan sodir bo‘lishi kerak.

Yerlar resurslaridan ratsional foydalanishda mazkur konsepsiyaning o‘rni beqiyos bo‘lib, oldingi ishlarda, jarayonga faqat bir tomonlama yondashilgan, hatto ba’zida tabiiy resurslar va ulardan foydalanishga bo‘lgan iqtisodiy va ekologik jihatlar bir-biriga qarama-qarshi holatga kelib qoldi. Holbuki, har qanday mamlakatning asosiy vazifasi, iqtisodiyotini rivojlantirish hamda aholisining farovon hayot kechirishini ta’minlashdir. Lekin shu bilan birga tabiatini, tabiiy boyliklarini ham avaylashi kerak. Konsepsiyada ularning har ikkisiga ham e’tibor qaratildi. Ammo bu borada ham muammolar yetarli bo‘lib, uning amalga oshirilishi ma’lum davr, mablag‘ hamda chuqur bilimni talab qiladi.

Yer resurslari nafaqat qishloq xo‘jaligi balki butun iqtisodiyot va aholi turmush sharoiti uchun muhim ahamiyatga ega. Ularni o‘rganishda turli sohalar (tarmoqlar) o‘zining talab va imkoniyati doirasida yondoshadi. Ya’ni yer, aksariyat qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan sohalarda alohida - alohida tadqiq qilinadi, chunki yer bularning har biri uchun alohida omil bo‘lib ta’sir ko‘rsatadi. Buning misoli sifatida, ba’zi iqtisodiyot tarmoqlarida (asosan, qishloq xo‘jaligi) yerning resurs (tabiiy boylik), ayrimlarida (sanoat, transport) esa sharoit (omil) sifatida o‘rganilishini qayd qilish mumkin. Agar yer hamda suv “va” bog‘lovchisi orqali ifodalangani sababli, asosan mustaqil ravishda ko‘rib chiqiladi. Agar “va” bog‘lovchisini o‘rniga “-” belgisidan foydalansak, har qanday holatda (ayniqsa agrar ishlab chiqarishda) ular birgalikda o‘rganiladi. YA’ni yuqorida qayd qilinganidek, yer va suv (yer - suv) ko‘p hollarda qishloq xo‘jaligi hamda unga yaqin sohalar maqsadida tadqiq etiladi. Ularning birligini ayniqsa, “sug‘oriladigan yerlar” orqali tavsiflash ancha maqbul (qulay). Chunki sug‘oriladigan yerlar yer va suvni (yer-suv) bitta (yagona) resurs sifatida e’tirof etilishiga sababchi bo‘ladi. Sug‘oriladigan yerlarning esa agrar tarmoqdagi o‘rni juda yuqori bo‘lib, unda tayyorlanadigan mahsulotlarning 90 foizga yaqinini ta’minlab beradi.

Garchi sug‘oriladigan yerlar qishloq xo‘jaligida eng asosiy boylik hisoblansada, u butun (agrar) sohani qamrab ololmaydi. Ushbu resurslardan samarali, tejamli, bir so‘z bilan aytganda



oqilona foydalanish tadqiqotning asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Oqilona foydalanish esa o'z navbatida asosan iqtisodiy va ekologik jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Yer resurslaridan xo'jalikda foydalanish maqsadida o'rganish bir necha yo'nalishlarda olib boriladi. Ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalamiz:

1. Iqtisodiy samaradorlik, ya'ni asosiy e'tibor foydaga qaratilishi. Nafaqat yer, balki boshqa tabiiy resurslarni o'rganishdan maqsad ham eng avvalo foyda olish, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yaxshilashdan iborat.

2. Ekologik jihat yoki tabiiy resurslarni muhofaza qilinishi. Yer tiklanadigan resurslarga kirsam ham, bu tiklanish turli omil, sharoit va jarayonlarga bog'liq holda uzoq davrni o'z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun ulardan foydalanilayotganda sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatmaslik zarur [5].

Bu ikkalasi alohida yo'nalishlar bo'lib, turli fan sohalari ularni o'z maqsadi doirasida, chegarasida o'rganadi. Lekin ularni ajratish yoki bir - biriga teskari qo'yish ham unchalik ma'qul emas. Iqtisodiy va ekologik jihatlar tabiiy resurslarni birgalikda tadqiq qilishi, aholiga, insoniyatga birgalikda xizmat ko'rsatishi kerak. Oqilona (ratsional) foydalanish ana shundagina to'g'ri yo'lga qo'yiladi.

Yer resurslaridan ratsional foydalanish deyilganda, insonning ularga nisbatan oqilona, maqsadli hatti - harakati tushuniladi, ya'ni u betartib jarayon bo'lmay, oldindan o'rganilgan, rejalashtirilgan, shakllantirilgan bo'ladi. Shuning uchun oqilona foydalanishni amalga oshirish ularning jamiyatda ijtimoiy - iqtisodiy aloqalar va munosabatlar obyekti sifatidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Yer foydalanish, odatda, qabul qilingan mezonlar, sharoitlar nuqtai - nazaridan jarayonning samaradorligini belgilovchi u yoki bu cheklashlarni nazarda tutadi. Masalan, mazkur resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ziyon bo'lsada, ayrim ijtimoiy samaradorlikka erishish avvaldan rejalashtirilgan bo'lishi mumkin. "Ratsional" tushunchasi yer resurslaridan foydalanish tarkibini optimallashtirish bo'yicha harakatlarni bildiradi, unga ko'ra avvaldan belgilangan shartlar asosida foydalanish jarayoni amalga oshadi, mazkur jarayonning natijasi "samaradorlik" natijasidir. Vaqtinchalik belgilarga ko'ra, "ratsional" tushunchasi "samaradorlik" tushunchasidan oldingi holat, ya'ni birlamchi tushuncha taassurotini qondiradi[4].

Yerdan foydalanish samaradorligi iqtisodiy kategoriyadir, lekin ushbu tushuncha faqatgina iqtisodiy yoki xo'jalik ma'nolari bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy, rekreatsion va tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini ham qamrab oladi. Yer resurslardan foydalanishning har bir jihatiga ma'lum bir turdagi: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik samaradorlik xosdir. Agar ulardan foydalanish faqat bitta nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, unda faqat ma'lum turdagi samaradorlikka erishiladi. Mazkur samaradorlik esa ulardan foydalanishning boshqa jihatlariga zarar keltirish hisobiga amalga oshadi. Ushbu jihatlarining talablari ulardan foydalanishning asosiy sharti sifatida qo'llanilmaydi.

Doimo foydani ko'zlab ish tutish, yer resurslari barqarorligiga putur yetkazishi, ular qayta tiklanishini qiyinlashishiga sababchi bo'lishi mumkin. Buning esa asosiy sharti, antropogen ta'sirlarning, tabiiy tiklana olish qobiliyati chegarasidan ortib ketmasligidir.

$$A_t \leq T_q$$

Bu yerda, A_t – antropogen ta'sir, T_q – tiklanish qobiliyati

Demak, ba'zida haddan ortiq samaradorlik ham nafaqat ekologiyaga (atrof - muhitga), balki iqtisodning o'ziga ham zid kelar ekan. Shuning uchun ularni bir - biriga bog'liq tomonlaridan foydalanib, birgalikda o'rganish har tomonlama ma'quldir. Mana shu bog'liqlikni esa iqtisodiy - ekologik jihat orqali tadqiq qilish mumkin.



Yer resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy - ekologik jihatlari qaysidir ma'noda mustaqil yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning afzallik tomoni iqtisodiy va ekologik jihatlardan bir xilda tadqiq qilinishidir. YA'ni, bunda ham eng avvalo iqtisodiy foyda, samaradorlik nazarda tutiladi. Biroq iqtisod ekologiyadan uzoqlashmaydi, unga qarama - qarshi kelib qolmaydi, balki, uning qonuniyatlari, shartlarini hisobga oladi, ulardan aynan o'zining asosiy tushunchasi sifatida foydalanadi. Umuman olganda, ekologiya ham faqatgina atrof - muhit ifloslanishini o'rganadigan tor soha emas. U aslida biror obyekt (jonzor) yoki jarayonning tabiat bilan aloqasini o'rganadigan (aslida bundan ham keng) yirik fan tarmog'idir (E.Gekkel, 1866 y.) [5]. Demak ekologiya yoki ekologik jihat tabiiy resursni, atrof - muhit bilan o'zaro aloqasini, ularning bir - biriga ta'sirini o'rganar ekan. Aslida, iqtisod ham tabiatdan uzilmaydi, balki undan, uning resurslaridan qanday qilib ratsional foydalanish mumkinligini tadqiq etadi. Zero, mashhur bir olim aytganidek, iqtisod bu - cheksiz ehtiyojlarni cheklangan resurslar bilan qondirish san'atidir. Ekologiyaning asosiy vazifasi mana shu cheklangan resurslarni muhofaza qilishdan iborat. Yer resurslarini iqtisodiy - ekologik tadqiq etish, mana shu aloqadan xo'jalikda to'g'ri va samarali foydalanish yo'l - yo'riqlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Namozov, J. A. (2021). *Economic and geographical aspects of rational use of land and water resources of Samarkand region. DG Ph. Sci* (Doctoral dissertation, PhD).... thesis).
2. Namozov, J. A. Yer - suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid zamonaviy qarashlar // TerDU. O'zbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Termiz, 2020. B. 261 - 263.
3. Namozov, J. A. Yer-suv resurslaridan foydalanish geografiyasi (Samarqand viloyati materiallari asosida). Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022. 136 b.
4. Namozov, J. A., Mirzaliyev S. Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy - ekologik jihatlari // O'zMU. O'zbekiston Yevrosiyo makonida: Geografiya, geoiqtisodiyot, geoekologiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T., 2017. B. 244 - 246.
5. Nig'matov A.N. Ekologiya huquqi. - T.:Noshir. 2012. - 424 b.
6. Qayumov A.A., Namozov, J. A. Yer resurslarining iqtisodiy ahamiyati // O'zMU. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T., 2016. B. 120 - 123.
7. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika, amaliyot. - T.: Universitet, 2013.
8. Umirkulovich, S. A., Abduazizovich, N. J., & Turakulovich, R. F. (2021). Pasture livestock effects on agricultural land in Samarkand region. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(2), 447-451.
9. UNEP, 2024, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication (<http://www.unep.org/greenconomy>).
10. Чертовичкий А.С. Экономика землепользования. Учебник. Т.:ТИМИ, 2012.



MUNDARIJA

1-SHU’BA GEOGRAFIYA, GEOEKOLOGIYA, ATROF-MUHIT

MUHOFASASIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Diniy turizmni rivojlantirishda muqaddas qadamjolarining o‘rni (Forish tumani misolida). <i>Xakimov Koshkar Maxkamovich, Usmanov Mashrab Rustamovich, Xakimov Bekzod Bekpo‘latovich</i>	4
Samarqand viloyati xo‘jaligining shakllanishi. <i>Kadirov Murodillo Aslamovich, Eraliyeva Munisa</i>	8
Qashqadaryo voha landshaftlariga irrigatsion erroziya ta‘sirini optimallashtirish yo‘llari. <i>Nazarov X.T., Yusupova K.U., Davronova R.K., Nazarova D.X., Abdurashidava S.T., Masharipova M.A.</i>	11
Buxoro viloyati aholi punktlarining joylashuvi. <i>Zulxumor Tojiyeva, Olimjon Sherxolov, Odiljon Iskandarov.</i>	16
Mustaqillik yillarida surxondaryo viloyati aholi soni va dinamikasidagi o‘zgarishlar. <i>Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Pardayev Nodirbek Saidahmadovich.</i>	20
Tuproq bonitirovkasi tabiiy geografik komplekslarni qishloq xo‘jalik uchun baholash asosi sifatida (buxoro viloyati vohalari misolida). <i>Tashov Xudoynazar Ramazonovich, Nasullaeva Kamola Sharofovna.</i>	24
Risks and ecological impacts of soil salinity in mirzachul steppe. <i>Kuvondik Yarashev, Yunus Karimov.</i>	27
Methods for studying the impact of soil salinization on desertification in mirzachul. <i>Yunus Karimov, Kuvondik Yarashev.</i>	31
Chumqor tog‘ yonbag‘ri suv havzalari va ularning ekologik holati. <i>Mirkomil G‘o‘dalov, Dildora Ahmedov.</i>	35
Sangzor daryo havzasi tabiatidan foydalanishning geografik asoslari. <i>G‘o‘dalov Mirkomil Ravshanovich, Qosimov Nurmuxamad Dursinovich.</i>	38
Oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlashda landshaft tadqiqotlarining roli. <i>Eshquvvatov B.B., Arziqulov J.O., Obloqulov Sh.Sh.</i>	42
Xorijiy mamalakatlarda kadastr tizimiga geografik yondashuvlar haqida. <i>Karimov I.E., Qarshiboeva B.T.</i>	46
Sun‘iy yo‘ldosh tizimidagi gpsda geodezik o‘lchash ishlarini bajarishning geografik jihatlari. <i>Karimov I.E., Eluceeva H.A.</i>	49
Yer resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy - ekologik xususiyatlari. <i>Namozov Jo‘rabek Abduazizovich, Dushamova Shahnoza Ikrombek qizi</i>	52
Samarqand viloyati hududining iqlim xususiyati <i>Abdirahmonov Sobir Tolliboy o‘g‘li, Ochilov Sanjar Zokir o‘g‘li</i>	56
Degradatsiyalangan yaylovlarni barqaror tiklashda fitomeliorsiya: nurota tog‘ oldi holati misolida. <i>Abdurashidova Saida Tolliboy qizi</i>	60
Assessment of the current meliorative state of irrigated lands in karakalpakstan and strategies for improvement. <i>Alimov Atabek</i>	62
O‘zbekiston respublikasi xududiy urbanistik tarkibini shakllanishi va rivojlanishining iqtisodiy geografik tahlili. <i>Barotova Gulmira Bahri qizi</i>	65
Atrof-muhit o‘zgarishini monitoring qilishda kompyuter texnologiyalarining zamonaviy salohiyati. <i>Bektursinova Dilnura Pulat qizi</i>	69